

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиазарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

Maxmudova M. S.

«Jahon tarixi» kafedrası katta o'qituvchisi, PhD

Farg'ona davlat universiteti

maxmudovamuazzam1982@gmail.com

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida ilm-ma'rifat markazi hisoblangan kutubxonalar hamda ularning faoliyati haqida so'z boradi. Kutubxonalar vazifasiga ko'ra turlarga ajratilib, ma'lumot beriladi.

Tayanch so'zlar: "Dor ul-kutub", dorug'a, kitobdor, Amir Temur, Shohrux Mirzo, Gavharshod Og'o Begim, Mirzo Ulug'bek, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy kutubxonalari.

KIRISH

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xuroson har jabhada yuksalib, ilm-fan va san'at sohasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu davrda saroy kutubxonalari tashkil etildi, kitobat san'ati, xattotlik, muqovasozlik ishlari rivojlandi. Ushbu sohada faoliyat olib borgan shaxslarga davlat tomonidan homiylik qilindi va ularning faoliyati qo'llab-quvvatlandi.

Temuriylar davri kutubxonalari uch guruhga bo'lish mumkin. Bular quyidagilar: 1) Hukmdor va shahzodalar kutubxonalari; 2) Vazirlar va amaldorlar kutubxonalari; 3) Olimlar va adabiyot ahli kutubxonalari.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Amir Temur farmoni bilan tashkil qilingan kutubxonalar haqida temuriylar davri yozma manbalarda ma'lumotlar uchramasa-da, tadqiqotchilar tomonidan mazkur masalani yoritishga harakat qilingan. "Amir Temur jahon tarixida" asarida sohibqiron tomonidan tashkil etilgan "Dor ul-kutub" ("Kitoblar uyi") kutubxonasi nodir kitoblar va noyob qo'lyozmalar bilan to'ldirilganligi haqida ma'lumot beriladi[1:91].

Amir Temur hukmronlik qilgan dastlabki yillarda Shahrisabzda kutubxona bo'lgan, keyinchalik Samarqandga ko'chirilgan. Mazkur kutubxonada yunon, lotin, fors, suryoniy, arman va boshqa tillardagi eng noyob qo'lyozmalar saqlangan. Saroy kutubxonasida o'z davrining yetuk olimlari hisoblangan Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshiy, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono No'moniddin Xorazmiy, Hoja Afzal,

Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Amir Temur homiyligida ilmiy-ijodiy faoliyat olib borgan”[2].

Amir Temur kutubxonasida faoliyat yuritgan kitob ustalari kitobat san’atining paydo bo’lishiga va rivojlanishiga katta hissa qo’shdilar. Amir Temur kutubxonasida faoliyat yuritgan ko’plab usta-hunarmandlarga bag’dodlik usta Hoja Abdulhay boshchilik qilgan. Hoja Abdulhay vafotidan so’ng, barcha ustalarga uning ishlari namuna bo’lgan[3:266]. Ushbu ma’lumotdan Amir Temur saltanatga turli mamlakatlardan turli usta-hunarmandlar bilan birga kitob ustalarini ham olib kelganligi ma’lum bo’ladi.

“Temur qissasi”da yozilishicha, Amir Temur Rum mamlakatiga yurishga otlanganda Ahmad Yassaviy kitobiga murojaat qiladi va bir ruboiyni xotirasida saqlaydi. Qaysar lashkarlari bilan yuzma-yuz chiqqanda ruboiyni yetmish marta takrorlaydi va g’alaba qozonadi[4:35]. Bundan Ahmad Yassaviyning kitobi saltanat kutubxonasida saqlanganligini anglashimiz mumkin bo’ladi.

Amir Temurning ilm-fan va san’atga qaratgan e’tibori uning vorislari tomonidan davom ettirildi. Bu davrda temuriy hukmdorlar devonxonalari qoshida, xususan, Samarqand va Hirotida mahsus saroy kutubxonalari tashkil etilgandi. Bunday kutubxonalar o’rta asrning o’ziga xos hunarmandchilik korxonasi bo’lib, ularda qo’lyozma asarlarni to’plash va saqlash bilan birga, ulardan nusxalar ko’chirish, turli manzarali rango-rang tasvir va naqshinkor lavhalar bilan sahifalarni bezash hamda muqovalash kabi kitobsozlik bilan bog’liq bo’lgan bir qancha amaliy ishlar bajarilgan. Bunday saroy kutubxonalarining boshliqlari kutubxona dorug’asi yoki kitobdor atalib, uning qo’l ostida ko’plab xushnavis xattot, qo’li gul naqqoshu musavvirlar, mohir lavvohu sahhoblar kitob yaratishga oid turli buyurtmalarni bajarganlar[5:139].

Mirzo Ulug’bek temuriylarning eng ilm-fanga qiziqqan va homiylilik qilgan vakili sifatida tarixda o’chmas iz qoldirganligi barchaga ma’lum. Unga bobosi Amir Temurdan boy kutubxona meros bo’lib qoldi, uning olim bo’lib yetishishiga ushbu kutubxona poydevor bo’lib xizmat qildi. Mirzo Ulug’bek Samarqandda Rasadxona va madrasa qurdirdi, ushbu madrasada ulkan olimlar va tadqiqotchilar ham foydalanishi uchun kutubxona tashkil qildi. Madrasada o’z davrining yetuk olimlaridan Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, G’iyosuddin Jamshid Koshoniy kabi olimlar faoliyat olib bordi.

XV asrda “Mirzo Ulug’bek kutubxonasi” aniq fanlarga oid kitoblarning miqdori jihatidan dunyoning boshqa kutubxonalaridan yuqoriroq edi. Ukasi Mirzo Boysunqurning Hirotidagi kutubxonasi asosan, san’at va adabiyotga oid kitoblarga bag’ishlangan edi.

Ulug’bek vafotidan so’ng Ali Qushchi qulay vaqt topib, kutubxonadagi kitoblarni Hazrati Bashir qishlog’iga ko’chirgan, degan qarashlar ham bor. Ushbu

kutubxonadagi kitoblarning barchasi olib ketilganmi, yo‘qmi ma’lum emas, ma’lumotlarda qayd etilishicha, Ulug‘bek kutubxonasidagi kitoblar jami o‘n besh ming jilddan ziyodroq ekanligi aytilgan[6:85]. Tadqiqotchilarni “Mirzo Ulug‘bek kutubxonasi”ning qayerda joylashganligi doim qiziqtirib kelgan. Kutubxonaning joylashgan o‘rni Alisher Navoiy nomli Samarqand Davlat universiteti professori Ahmad Xatipov tomonidan qidirilgan, qidiruv ishlaridan foyda bo‘lmaganidan keyin qidiruv to‘xtatilgan.

Shohrux Mirzo ham poytaxt Hirotida kutubxona tashkil qilib, ilm-fan sohasini rivojlanishiga e’tibor qaratdi. Ushbu kutubxonada o‘z zamonasining nodir kitoblari yig‘ilgan edi. Tadqiqotchi Liza Glombekning ma’lumot berishicha, Misr sultoni Sulton Chaqmoq Xurosonga Shohrux Mirzo saroyiga maxsus elchilar yuborib, saroy kutubxonasidagi besh nodir asarni: Shayx Abu Mansur Moturidiyning “Ta’viloti ahli sunnat”, Imom Fariduddin “Tafsiri kabir”, “Sharhi Talhisi Jome”, Mavlono Alouddin Pahlavonning “Sharhi Kashshof” sovg‘a tariqasida Misrga yuborishini iltimos qiladi. Nodir aql egasi bo‘lmish Mirzo Shohrux ushbu asarlarni asl nusxasini emas, balki ulardan yangidan nusxa ko‘chirishilgan variantini yuborishini buyuradi. Bu esa nodir asarlarni yo‘qolib ketish xavfini kamaytirar edi[6:38].

Shohrux Mirzoning ikkinchi o‘g‘li Boysunqur Mirzo adabiyot va san‘atga muhabbatli shahzoda bo‘lgan. U ko‘p vaqtini kitoblar to‘plash, olimlar, shoirlar va yozuvchilar bilan muloqot qilish o‘tkazdi. U Xurosonda kutubxona barpo qildi. Boysunqur kutubxonasining mudiri Kamoluddin Ja‘far Tabriziy bo‘lib, u XV asrning mashhur xattotlaridan biri Ja‘far Boysonquriy nomi bilan mashhur edi[7].

Masalan, XV asrning birinchi yarmida Boysunqur Mirzo kutubxonasida qirqta xattot va bir qancha naqqosh qo‘lyozma asarlardan nusxalar ko‘chirish va ularni bezash bilan band bo‘lgan[5:140].

Boysunqur Mirzo rahbarligida Hirotidagi ulkan saroy kutubxonasida ishlagan musavvir, xattot va kotiblar “Shohnoma”, “Layli va Majnun”, Sa‘diyning “Bo‘ston va Guliston” asarlarining suratli nusxalari kabi ko‘plab asarlar yaratdilar[8:40].

Boysunqur Mirzoning saroy ustaxonasi va kutubxonasi temuriylar poytaxti bo‘lgan Hirotidagi go‘zal Bog‘i Safidda joylashgan edi. U qo‘lyozma kitoblar yaratilishiga homiylik qilgan. “Tabaqot un-Nosiriy”ning bir nusxasi Hirotida temuriy kitobsevar shahzoda Boysunqur Mirzo (1397-1433) uchun ko‘chirilgan[10:24].

Husayn Boyqaro Mirzo Hiroti qo‘lga kiritgach, bu shaharda o‘zining ulkan kutubxonasini barpo etdi. Madaniyatli va iste’dodli, san‘atga ixlosi baland hukmdor sifatida u o‘z saroyiga butun saltanatdan o‘sha davrning eng mashhur ustalarini jalb qildi. Jumladan, Tabrizdan musavvirlar Said Ahmad musavvir va Hoja Alilarni olib kelib, o‘z kutubxonasiga joylashtirdi. Tarixchilar qayd etganidek,

uning kutubxonasida ko‘plab kotiblar, musavvirlar va xattotlar muntazam faoliyat olib borishgan[8:42].

Temuriy hukmdorlar qo‘lyozma asarlar nusxalarini ko‘paytirishga alohida e‘tibor qaratganlar. Jumladan, “Zafarnoma”ning so‘nggi nusxasida asarni Husayn Boyqaro kutubxonasi uchun ko‘chirilganligi qayd etilgan[8:52]. Uning kutubxonasida shoir va ma‘naviy rahnamo Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) asarlari ham mavjud edi[8:59]. Navoiyning ukasi Darveshali devonxona kutubxonasining dorug‘asi etib tayinlanadi[5:140].

Alisher Navoiy ilm-fan va san‘atni targ‘ib qilib, olimlar va talabalar uchun mukofot pullari va stipendiyalar joriy qilgan. Uning juda boy shaxsiy kutubxonasi bo‘lgan. Alisher Navoiy ushbu kutubxonani boshqarish uchun Mavlono Hoji Muhammad Zufnunni mudir qilib tayinlaydi va kutubxonaga vaqf mulki ajratadi[11].

“Makorim ul-axloq” asarida yozilishicha, Alisher Navoiy Xondamirning iste‘dodini ko‘rib, Xurosondagi eng boy kitobga ega bo‘lgan o‘zining kutubxonasini uning ixtiyoriga topshiradi[12:168]. Bu esa Xondamirning kelajakdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Tarixchi Xondamirning yozishicha, Alisher Navoiyning yaqin do‘sti Sohib Doro umrining aksariyat qismini Alisher Navoiy bilan o‘tkazgan. 1501-yilda Alisher Navoiy vafot etgach, uni Sulton Husayn kutubxonasining boshlig‘i etib tayinlashgan[13:99]. Mavlono Fasihiddin Sohib Doro Astrobod fozillarining sarasi bo‘lgan, Alisher Navoiyning vafotidan so‘ng Sulton Husayn Mirzo saroyida xizmatga kirib, ushbu saroyning muborak kutubxonasi dorug‘asi etib tayinlangan[12:198]. Sohib Doro Alisher Navoiyning yaqin do‘stlaridan bo‘lganligi sababli Husayn Boyqaro do‘stining do‘stiga alohida ehtirom ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Mavlono Hoji Muhammad Naqqosh ismli usta Alisher Navoiy kutubxonasiga soat-quti ixtiro qilib, o‘rnatib berganligi “Makorim ul-axloq” asarda quyidagicha yoritib berilgan: Ushbu qutida qo‘lida tayog‘i bo‘lgan bir shakl ishlangan bo‘lib, kundan bir soat vaqt o‘tganda qo‘lidagi tayog‘ini bir marta oldida turgan nog‘oraga urardi. Kunning ikkinchi soati o‘tganda ham shu holat takrorlanardi. Shunday qilib soat-qutidagi mazkur shakl har bir soatda bir marta tayog‘ini nog‘oraga urar, bu bilan navbatdagi soat o‘tganini bildirardi. Bir necha vaqt Amir Alisher Navoiy kutubxonasining mudiri bo‘lib ishladi. Ammo oradan bir qancha vaqt o‘tgach ul janobdan ranjib, Mirzo Badiuzzamon Hirot shahrini qamal qilgan (hijriy-qamariy) 904 (milodiy 1498/1499)-yili uning oldiga qochib o‘tdi va Mirzo Badiuzzamon saroyida ham o‘sha mansabga tayinlandi[12:209].

Kamoliddin Behzodning ustози Amir Ruhulloh bo‘lib, uni Mirak taxallusi bilan chaqirishgan. Husayn Boyqaro uni saroy kutubxonasiga mudir qilib

tayinlagan[14:38]. Hoja Mirak Naqqosh avvaliga xattotlik (mashq-i xatt) bilan shug'ullangan, keyinchalik chizmachilik (tahrir) va bezak san'ati (tazhib) bilan shug'ullanib, nihoyat umrining oxirida tasviriy san'at (tasvir) ustasiga aylangan[8:157].

Saltanatda hukmdorlar kutubxonalaridan tashqari vazirlar, amaldorlar va ilm ahlining kutubxonalari mavjud bo'lgan. Mashhur diniy alloma Muhammad Porso buxoro sadrlaridan qolgan kutubxonani saqlab qolgan. XII asrda buxoro sadrlari tomonidan tashkil etilgan eski kutubxona mavjud bo'lib, ushbu kutubxona uzoq vaqt Hofiz ad-Din al-Kabir oilasi tomonidan nazorat qilingan. 1407-1408-yillarda Muhammad Porso o'z mulkidan kutubxona va kitoblarni saqlash uchun vaqf ajratadi. Vaqf mulki dastlab Muhammad Porso, keyin uning o'g'li Abu Nasr tomonidan boshqarilgan. Boshqa ma'lumotlarda kutubxona Muhammad Porso tomonidan qurilganligi qayd etiladi. Fikrimizcha, Muhammad Porso kutubxonaning eski binosi oldida yangi bino qurdirib, kutubxona fondini kengaytirgan.

Amerikalik tadqiqotchi Mariya Subtenli esa kutubxona asoschisi Hofiz ad-Din al-Kabirni Muhammad Porsoning uzoq qarindoshi, taniqli diniy olim va hanafiy huquqshunosi ekanligini yozadi. Yana uning qayd etishicha, Muhammad Porso kutubxonasi cheklangan bo'lsa-da jamoat kutubxonasi edi, u madrasa va xonaqohlarga biriktirilmagan. Vaqf shartlariga ko'ra tushgan daromad kutubxona boshqarilishiga, uning moddiy ta'minotiga va ortgan mablag' esa yangi kitoblar sotib olish uchun ishlatilishi kerak edi. Kutubxona XIX asr oxiriga kelib o'z faoliyatini to'xtatdi va tanazzulga yuz tutdi[13:246].

Mazkur kutubxonada asosan yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning kitoblari saqlangan va kitoblar bizning davrimizgacha yetib kelgan. Hozirgi kunda kitoblar O'zbekiston va jahon kutubxonalarida saqlanmoqda.

Hoja Afzaluddin Mahmud ibn Ziyoiddin Muhammad Kirmoniy Alisher Navoiy bilan birga vazirlik lavozimida faoliyat olib borgan. U Hirotda ulkan masjid, madrasa va xonaqoh bino qilib, ularning har biriga katta kutubxona qurdirdi. Bundan tashqari, u Hirotda minglab kitoblarga ega bo'lgan keng kutubxona tashkil etdi, bu shoirlar, yozuvchilar va tarixchilar uchun to'planish joyi edi.

Gavharshod Og'o Begim 1424-yilda Imom Rizo muqaddas ziyoratgohi yaqinida muhtasham masjid, madrasa va xonaqoh qurdirgan. Gavharshod Og'o Begim madrasasida juda katta kutubxona bo'lib, u XVI asr boshlarida Shayboniixon qo'shinlarining Xurosonga bostirib kirishi paytida talon-taroj qilingan.

Sherozdagi Atiq jome masjidi kutubxonasida diniy fanlarga oid ko'plab kitoblar bo'lib, kutubxona Sheroz hukmdori, kitob va kutubxonalarga katta

qiziqish bildirgan Mirzo Pir Muhammad ibn Umar (781-812/1379-1409) tomonidan tashkil etilgan.

Dodar madrasasi kutubxonasi 1439-yilda Shohrux Mirzoning sarkardalaridan biri Amir Yusuf Hoja Bahodir tomonidan qurilgan. U Yusuf Hoja madrasasi nomi bilan mashhur bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan u "Dodar" nomi bilan mashhur bo'ldi, chunki uning sharqiy va g'arbiy tomonlarida ikkita kirish eshigi bor edi.

Parizod madrasasi Mashhadda saqlanib qolgan eng muhtasham madrasalardan biridir. U Shohrux Mirzo saroyidagi Parizod ismli ayolning buyrug'i bilan qurilgan. Bu madrasada kutubxona ham bo'lib, unda hadya qilingan kitoblar ko'p edi.

Bu davrdagi madrasalarda yana ko'plab kutubxonalar tashkil etilgan: Sulton madrasasi kutubxonasi, G'iyatiyya kutubxonasi, Hirotdagi Dor al-Hadis madrasasi kutubxonasi, Hoja Malik Zargar madrasasi kutubxonasi, Hoja Maxdom Jomiy madrasasi kutubxonasi, Hoja Kamol ad-Din Giringiy madrasasi kutubxonasi, Hoja Ismoil Hisoriy kutubxonasi, Amir Mahmud madrasasi kutubxonasi, Tiflagan madrasasi kutubxonasi, Nizomiya madrasasi kutubxonasi, Hirotdagi Pir Xonqoh madrasasi kutubxonasi, Malik Husayn Kurt Xonqoh madrasasi kutubxonasi, Bilband madrasasi kutubxonasi, Sabz Darmon madrasasi kutubxonasi, G'arbi madrasasi kutubxonasi, Ixlossiya madrasasi kutubxonasi, Badiiya madrasasi kutubxonasi[7].

XULOSA

Temuriylar davrida Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda shakllangan kutubxonalar ilmiy-ma'rifiy markazlar bo'lib, kutubxonalarda kitob saqlash bilan birgalikda ilmiy izlanishlar olib borilgan hamda turli tillardagi asarlar tarjima qilingan. Kutubxonada ko'plab olimlar, xattotlar, musavvirlar va tarjimonlar faoliyat olib borgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Amir Temur – jahon tarixida. – Toshkent: "Sharq", 2001. – B. 91.
2. <https://oyina.uz/uz/article/3376>
3. Рахманкулова М. Some peculiarities of the bookbinding in temurid's epoch. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2019 Issue: 10. Volume: 78 QR – Article Published: 19.10.2019. – P. 266.
4. Амир Темур Кўрагон. Темур қиссаси. – Тошкент: "Фан", 2004. – Б. 35.
5. Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. – Б. 139-140.

6. Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shohru va Mirzo Ulug‘bek. – Toshkent: “Lesson press”, 2022. – B. 38-85.
7. <https://sharpweb.org/linguafranca/issue-9-2023/2023-behzadiradad/>
8. Lamia Balafrej. The making of the artist in late timurid painting. – Edinburgh: Edinburgh University Press Ltd, 2019. – P. 52-157.
9. Mujtaba Arify, Mohammad Imran Basiri. Addaiyan Journal of Arts, Humanities and Social Sciences, 2024;6(12):36-47. ISSN:2581-8783. – P. 40-59.
10. Shiva Mihan. PERSIAN HEROES OR TIMURID PRINCES: THE CASE OF AN ILLUSTRATED MANUSCRIPT OF THE TABAQAT-I NASIRI. The Kultura Journal. <https://doi.org/10.5937/kultura2275023m>. 2002. – P. 24.
11. <https://sharpweb.org/linguafranca/issue-9-2023/2023-behzadiradad/>
12. Хондамир, Ғиёсиддин. “Мақорим ул-ахлоқ”: тарихий асар. – Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2018. – Б. 168-209.
13. Subtelny M. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. – Leiden-Boston: Brill, 2007. – P. 99-246.
14. Golombek L., Wilber D. The Timurid Architecture of Iran and Turan. Vol. I. – New Jersey: Princeton University press, 1988. – P. 38.

Махмудова М. С.

Старший преподаватель., PhD кафедры «Всемирная история»
Ферганский государственный университет
maxmudovamuzzam1982@gmail.com

БИБЛИОТЕКИ ЭПОХИ АМИРА ТЕМУРА И ТИМУРИДОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются библиотеки, считавшиеся центрами науки и просвещения в эпоху Амира Темура и Тимуридов, и их деятельность. Информация о библиотеках представлена согласно их классификации по функциям.

Ключевые слова: “Дар уль-кутуб”, даруга, хранитель библиотеки, библиотеки Амира Темура, Шахруха Мирзы, Гавхаршад Ага Бегим, Мирзы Улугбека, Байсункура Мирзы, Хусейна Байкары и Алишера Навои.

Mahmudova M. S.

Senior lecturer., PhD at the Department of «World History»

Fergana State University

maxmudovamuazzam1982@gmail.com

LIBRARIES OF THE AMIR TIMUR AND TIMURID ERA

ABSTRACT

This article discusses libraries and their activities, which were considered centers of knowledge and enlightenment during the era of Amir Timur and the Timurids. Information about libraries is presented according to their classification by functions.

Key words: “Dar ul-kutub”, Darugha, Bookkeeper, libraries of Amir Timur, Shahrukh Mirza, Gavharshad Agha Begum, Mirzo Ulugbek, Boysunqur Mirza, Husayn Bayqara, and Alisher Navoi.